


Doimiy aholi soni. Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2021-yil 1-yanvar holatiga kelib 3 947,4 ming kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 70,1 ming kishiga yoki 1,8 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1 458,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,9 %), qishloq aholisi soni 2 488,8 ming kishini (63,1 %) tashkil etdi.

E'tibor berib:
2020-yil yanvar-dekabr holatiga!


Doimiy aholi soni 70,1 ming kishiga ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni 101,4 ming nafarni tashkil etdi.

FHDYO bo'limlarida 33,4 mingta nikoh va 3,0 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.




Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi (2021-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km. ga kishi)




Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-dekabr holatiga, ming kishi)

	2019 y.	2020 y.
Tug'ilganlar	100,7	101,4
Vafot etganlar	16,4	18,4
Aholining tabiiy o'sishi	84,2	83,0
Ko'chib kelganlar	8,0	5,2
Ko'chib ketganlar	13,8	18,0
Migratsiya sal'dosi	-5,8	-12,8
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	36,1	33,4
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	3,5	3,0
1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille		
tug'ilish	26,4	25,9
o'lim	4,3	4,7
aholining tabiiyo'sishi	22,1	21,2
tuzilgan nikohlar	9,4	8,5
nikohdan ajralishlar	0,9	0,8

Aholining tabiiy harakati, kishi (yanvar-dekabr oylarida)



2020- yil yanvar-dekabr oylarida koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar soni, kishi




Doimiy aholi soni: (yanvar-dekabr holatiga) ming, kishi

	2019- yil	2020- yil	O'lgan yilga nisbatan o'sish sur'ati. %
Samarqand viloyati	3 877,4	3 947,4	101,8
Samarqand sh.	546,3	551,9	101,0
Kattaqo'rg'on sh.	89,6	90,7	101,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	158,7	161,7	101,9
Bulung'ur	186,3	189,6	101,8
Jomboy	171,9	176,0	102,4
Ishtixon	253,3	258,1	101,9
Kattaqo'rg'on	272,3	276,6	101,6
Qo'shrabot	131,1	133,5	101,8
Narpay	212,4	215,4	101,4
Payariq	249,5	254,6	102,0
Pastdarg'om	353,2	360,0	101,9
Paxtachi	143,9	146,0	101,5
Samarqand	251,5	256,4	101,9
Nurobod	149,9	152,7	101,9
Urgut	507,0	519,2	102,4
Toyloq	200,5	205,0	102,2

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi



(2021- yil 1- yanvar holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahriga to'g'ri kelib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,0 %ni tashkil etdi. Urgut 13,1 %ni, Pastdarg'om 9,1 %ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7,0 %ni tashkil etgan.

Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 101 360 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,9 promilleni tashkil etib, (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 26,4 promille bo'lgan) tug'ilish koeffitsiyenti o'zgarганиni ko'rishimiz mumkin.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr)




Ma'lumot uchun: *Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*



Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 18 405 kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi. (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,3 promille bo'lgan) o'lim koeffitsiyenti 0,4 promillega ko'paygan.

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti:

(2020- yil, yanvar-dekabr)





Vafot etganlar sonining ko'payishi Samarqand shahrida (5,9 dan 5,2 promillega), Urgut (4,3 dan 3,8 promillega), Pastdarg'om (4,5 dan 4,1 promillega) va Samarqand (5,8 dan 4,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ro'yxatga olingan jami vafot etganlarning 63,4 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklari, 6,5 foizi - o'sma kasalliklari, 4,6 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar, 4,9 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, 6,4 foizi - nafas olish organlari kasalliklari, 1,8 foizi - infeksiya kasalliklari va qolgan 12,4 foizi esa boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

Nikoh. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 33 375 kishining nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,5 promilleni tashkil etdi.


Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

(2020- yil, yanvar-dekabr)



Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 2 961 kishini nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.


Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (yanvar-dekabr)



Migratsiya. 2020-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5176 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 18 040 kishini tashkil etdi. Migratsiya sa'ldosi minus 12864 kishi bo'lib, 2019- yilning mos davrida minus 5 632 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr
Ko'chibkelganlar	8 035	5 176
Ko'chibketganlar	13 809	18 040
Migratsiya sa'ldosi	-5 774	-12 864



Migratsiya sal'dosining yuqori darajasi Samarqand sh. (minus 1 881 kishi), Kattaqo'rg'on (minus 1 708 kishi), Payariq (minus 1 292 kishi), Urgut (minus 1 164 kishi), Ishtixon (minus 1 159 kishi), Narpay (minus 890 kishi) hamda Qo'shrabot (minus 826 kishi) tumanlarida kuzatildi.

**Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi**
(66) 235-72-35